

XRISTIANLIK DININING PRAVOSLAV OQIMI TARIXI, O'ZBEKISTONDA USHBU OQIMNING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI HOLATI

Abduvohidov Dilshod Narbotirovich

Samarqand davlat universiteti magistranti,

E-mail: norbotirovic@mail.ru

Tel: +99893 341 31 94

Annotatsiya. *Maqolada Xristianlik dinining qisqacha tarixi va undagi yo'nalishlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek asosiy masala Pravoslav oqimining tarixi va uning rivojlanishi, hozirgi O'zbekistonda ushbu din oqimining ahvoli haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Xristianlik, Provoslavlik, Katolik, Protestantlik, cherkov, sobor.*

Абстракт. *В статье даны общие сведения о краткой истории христианства и его направлениях. Также основным вопросом является история православного движения и его развития, а также информация о современном положении этого религиозного движения в Узбекистане.*

Ключевые слова: *христианство, Православ, католицизм, протестантизм, церковь, собор.*

Abstract. *The article provides general information about the brief history of Christianity and its directions. Also the main issue is the history of the Orthodox movement and its development, as well as information about the current situation of this religious movement in Uzbekistan.*

Key words: *Christianity, Orthodox, Catholicism, Protestantism, church, cathedral.*

Xristianlik, asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan. Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq [1]. Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asr boshlarida, ya'ni 324-yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshirildi. 325-yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butundunyo Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirgan.

Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav (ortodoks) cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy



va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867-yillar orasida Papa Nikolay va Istanbul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro'yi berdi va bu ajralish 1054-yili rasman tan olindi. XVI asr boshlarida katolitsizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakati vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha "ortodoksiya" so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi. Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar IV-VIII asrlardagi yettita soborning qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan [2]. Xristianlikning Sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviylikning rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCH, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 yeparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya chet elda faoliyat olib boradi. Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxa bayramidan so'ng pravoslav dinining o'n ikki kunlik o'n ikki muhim bayrami boshlanadi. Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1-sentyabrdan boshlanadi. Isoning cho'qintirilishi ("Крещение Господня") bayrami 6-yanvarda nishonlanadi [3]. Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa – Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach Pasxa yangicha tus olgan. Yuqorida sanab o'tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgalik sifatida turli muddatli ro'za tadbirlari o'tkaziladi. Uning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat. Umuman olganda bugungi O'zbekistonda pravoslavlik 1991-yilgacha Sovet Ittifoqi va undan



oldingi Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan mamlakat aholisining sezilarli ozchilik qismining (2015-yilda taxminan 4%, ruslar va boshqa slavyanlar emigratsiyasi tufayli pasayish tendensiyasi kuzatilgan) dinidir [4]. Dunyoviy davlat O'zbekiston Respublikasi hududida Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasiga ega bo'lgan rus pravoslav cherkovining (Moskva patriarxati) cherkov yurisdiksiyasi pravoslav xristianlarga (nasroniylarga) tegishli bo'lib 2011-yildan beri u rus pravoslav cherkovining Markaziy Osiyo metropolitining tarkibiga kiradi. O'zbekiston hududi Rus pravoslav cherkovining (MP) Markaziy Osiyo mitropolit okrugi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi tarkibiga kiradi. 2011-yilgacha markazi Toshkentda (Toshkent va Markaziy Osiyo) joylashgan yeparxiya tarkibiga Tojikiston va Qirg'iziston ham kirgan, ularda hozir alohida yeparxiyalar mavjud: Dushanbe va Tojikiston yeparxiyasi, Bishkek va Qirg'iziston yeparxiyasi. 2007-yilgacha Turkmanistonni ham o'z ichiga olgan edi. 2007-yildan esa Turkmanistondagi pravoslavlar Turkmanistondagi Rus pravoslav cherkovi ibodatxonalarining Patriarxal dekanligiga birlashgan. 2011-yil iyul oyidan boshlab Toshkent Yeparxiyasining hukmron yepiskopi – Mitropolit Vikentiy (Morar) bo'lgan. Yeparxiya O'zbekiston Respublikasining butun hududini qamrab olgan 5 ta dekanat va 35 ta cherkovdan iborat bo'lib, 50 dan ortiq ibodatxonalar va ibodat uylarini o'z ichiga oladi. Toshkentdagi kafedral Sobor – Uspenskiy sobori hisoblanadi. Yeparxiya hududida “Hayot so'zi” gazetasi nashr etiladi. 1996-yildan buyon Toshkentda rus pravoslav cherkovining ruhoniylarni tayyorlaydigan oliy diniy ta'lim muassasasi – Toshkent diniy seminariyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Unda Pastoral-teologiya va katexizis (ayollar) bo'limlari mavjud.

Rus Pravoslav cherkovi Patriarxi, Moskva va Butun Rus pravoslav cherkovi Patriarxi Kirill O'zbekistonga tez-tez tashrif buyurib turadi. Misol uchun, 2020-yil 29-sentyabr kuni Patriarx Kirill boshchiligida delegatsiyasi Toshkentga yetib keldi [5]. U O'zbekistonga qilgan tashrifi ko'p asrlik do'stona aloqalarini mustahkamlashdan iborat ekanini aytib o'tdi. Uchrashuvda barcha dinlarni xavotirga solayotgan muqaddas diniy tushunchalarni o'ziga niqob qilib olgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash kabi masalalar yuzasidan fikr almashishni yo'lga qo'yish muhim ekani ham ta'kidlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-kurs-ishi/item/12016-xristianlik-dini>
2. <http://pravoslavie.uz/histor.html>
3. Xristianlik: Entsiklopedik lug'at / - M.: Buyuk rus ensiklopediyasi, 1993/1995. - V. 1-3. - 2317 b.
4. <https://2009-2017.state.gov/j/drl/rls/irf/religiousfreedom/#wrapper>
5. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=591>